

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

LINGVISTIK INTERFERENSIYA HODISASINING MOHIYATI XUSUSIDA

О ПРИРОДЕ ЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ

ABOUT THE PHENOMENON OF LINGUISTIC INTERFERENCE

Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi¹¹Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi– Toshkent davlat yuridik universiteti v.b. dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolaning maqsadi interferensiya hodisasini lingvistik jihatdan turli til sathlari doirasida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda lingvistik tahlil, qiyoslash, solishtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tillar qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, ijobiy interferensiya, tillar bir-biriga o'xshamagan bo'lsa, salbiy interferensiya yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Interferensiya tillarning o'zaro ta'sirida vujudga keladigan jarayon bo'lib, tilning barcha sathlarida namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelindi.

Аннотация

Целью данной статьи является лингвистический анализ явления интерференции в рамках разных языковых уровней. В исследовании использовались методы лингвистического анализа и сопоставления. По результатам исследования, чем ближе языки друг к другу, тем выше вероятность положительной интерференции, а чем больше непохожих языков, тем выше вероятность негативной интерференции. Сделан вывод, что интерференция – это процесс, происходящий при взаимодействии языков и проявляющийся на всех уровнях языка.

Abstract

The purpose of this article is to analyze the phenomenon of interference linguistically within the framework of different language levels. Methods of linguistic analysis, comparison and contrast were used in the research. According to the results of the research, the closer the languages are to each other, the higher the probability of positive interference, and the more dissimilar languages, the higher the probability of negative interference. It was concluded that interference is a process that occurs in the interaction of languages and is manifested at all levels of language.

Kalit so'zlar: lingvistik interferensiya, fonetik interferensiya, leksik-semantik interferensiya, sintaktik interferensiya, sotsiolingvistika, ijobiy va salbiy interferensiya.

Ключевые слова: лингвистическая интерференция, фонетическая интерференция, лексико-семантическая интерференция, синтаксическая интерференция, социолингвистика, позитивная и негативная интерференция.

Key words: linguistic interference, phonetic interference, lexical-semantic interference, syntactic interference, sociolinguistics, positive and negative interference.

KIRISH

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat, kishilar jamoasi bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Til jamiyatda shakllanadi, rivoj topadi. Buni aslo inkor etib bo'lmaydi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqot, kommunikatsiyada tilning asosiy vosita ekanligi uning jamiyat bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatuvchi muhim omil sanaladi.

Sotsiolingvistika tilning jamiyatga va jamiyatning tilga ta'sirini o'rganuvchi yo'nalish sifatida bir qator masalalar bilan shug'ullanadi. Shunday masalalardan biri ikki va ko'p tillilik asosida paydo bo'ladigan hodisalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilning jamiyat bilan aloqasi, lisoniy vositalarning ijtimoiy tabiati, uning insonlar hayotida tutgan o'rnini o'rganuvchi tilshunoslik tarmog'i sotsiolingvistika deb nomlanib, sotsiolingvistika, A. Berdialiev ta'bir bilan aytganda, "tilshunoslikning chaqaloq nabirasi" dir [1.27].

"Sotsiolingvistika (lot. Societas – jamiyat + lingvistika) tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalarini, til taraqqiyotidagi ekstralingvistik omillarni, til siyosatini, lisoniy muhitni hamda tilning jamiyat hayotidagi o'zni bilan bog'liq muammolarni o'rganuvchi soha" [2.27] hisoblanadi.

Til jamiyatda rivojlanar ekan, ijtimoiy omillar tilga o'z ta'sirini o'tkazadi. Zero, "til aloqa quroli sifatida o'zi xizmat qilayotgan jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog'liq

ravishda rivojlanadi. Jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarish uning tilida namoyon bo'ladi". [3.160] Shu sababdan ham sotsiolingvistika bugungi jahon tilshunosligidagi dolzarb masalalar bilan shug'ullanuvchi fan tarmog'idir.

Insoniyat doimo yangi bilimlarni egallash, ko'proq o'rganish ishtiyoqida bo'ladi va bu borada xorijiy tillarni o'rganish eng muhim omillardan sanaladi. Shu sababdan ham, chet tilini o'rganish kishilik jamiyati uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyojni qondirish asnosida ikki tillilik va ko'p tillilik vujudga keladi, so'zlovchi ikki yoki undan ortiq tillarda muloqot qiladigan bilingv yoki trilingv yoxud poliglotga aylanadi. Bu holatda – ikki tillilik va ko'p tillilik holatida tillar o'zaro aloqaga kirishadi, bir so'zlovchi nutqida ikki yoki undan ortiq tillar kontakti kuzatiladi. Nutqiy jarayonda tillarning bir-biriga ta'siri natijasida sotsiolingvistikaga xos tushunchalardan biri – interferensiya hodisasi yuzaga keladi. "Odatda, boshqa tilni yoshlikdan mukammal o'rganmagan shaxs ona tili sistemasi asosida fikrlagan holda nutq yaratadi. Boshqa tilning lisoniy sistemasi o'zgacha bo'lsa, o'ziga xos lisoniy to'siq – lingvistik interferensiya hodisasiga duch keladi". [4.11]

"Tilshunoslikda interferensiya sotsiolingvistik tushuncha sifatida qaraladi. Bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biron-bir ichki tizimiga lisoniy jihatdan ta'siri interferensiya deyiladi. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, interferensiya bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biror-bir hodisasiga beixtiyor o'tkazilishidir". [1.60] Ona tilidan boshqa bir tilni o'rganish ham murakkab jarayonlardan biri bo'lib, unda, yuqorida ta'kidlanganidek, tillar bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazadi. Shunga ko'ra interferensiyaning ikki turi: ijobiy va salbiy interferensiya farqlanadi. Ijobiy interferensiya chet tili o'rganish jarayonini osonlashtiradi, agar ona tili va chet tili bir-biriga o'xshash strukturalarga ega bo'lsa, bu orqali, ya'ni ona tiliga xos bilimlarni chet tiliga qo'llash orqali xorijiy tilni o'rganish yengillashsa, ijobiy interferensiya namoyon bo'ladi. Tillar qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, ijobiy interferensiya, tillar bir-biriga o'xshamagan bo'lsa, salbiy interferensiya yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Lingvistik interferensiya hodisasi language transfer (til transferi), L1 interference (birinchi til (ona tili) interferensiyasi), crosslinguistic influence (tillararo ta'sir) terminlari bilan ham nomlanadi. Bu terminlar ko'p hollarda parallel ravishda foydalanilsa ham, lisoniy interferensiya termini keng tarqalgan.

Interferensiya hodisasi aslida psixologiya oid bo'lib, "yangi material o'rganilayotganda oldin o'rganilgan odatlar, xotiralar yoki fikrlarning yangi o'rganilayotganlariga salbiy ta'siri" [5] ni anglatadi. Til o'rganish jarayonida sodir bo'ladigani esa lingvistik interferensiya deb ataladi.

Shuningdek, bir qator tilshunoslar tomonidan interferensiya hodisasiga turlicha ta'riflar keltirilgan: "Interferensiya, lingvistik nuqtai nazardan, bilingv aholining muloqot jarayonida ikki tilga xos qurilish va struktural elementlari o'rtasidasi ta'sirni ifodalovchi fenomendir". [7] Ushbu fikrga ko'ra, ikki til o'rtasidagi ta'sir ikki til – ona tili va o'rganilayotgan til o'zaro tenglikda, bir tilning dominantligisiz namoyon bo'ladi. Boshqa tilshunoslar esa interferensiyada ona tilning dominant bo'lishini e'tirof etadilar. Misol uchun, V.Vinogradov ta'rifiga ko'ra "Interferensiya" lotincha inter – o'zaro va ferio – tegish, urish so'zlaridan olingan bo'lib, ona tili ta'sirida ikkinchi til tizimi normalaridan chetlashishni anglatadi". [8] M.Popova interferensiyani ikki xil nuqtai nazardan tushunish mumkin ekanligi haqida fikr bildirib, bu ikki fikrni quyidagicha ifodalaydi: 1) interferensiya – dominant tilning (ona tilning) o'rganilayotgan tilga ta'siri jarayoni, natijada bilingvning chet tilida muloqotida o'rganilayotgan til normalaridan chetga chiqishi; 2) interferensiya – dominant til (ona tili) ta'sirida o'rganilayotgan til normalaridan chetlashishi va to'g'ridan-to'g'ri xatolari. [9] Keltirilgan ikkala ta'rifda ham ona tilning yetakchilik qilishi va ona tili ta'sirida o'rganilayotgan til me'yorlarining buzilishi nazarda tutiladi. Bizningcha, interferensiya ikki tilning o'zaro ta'sirida vujudga kelib, unda ona tili ham, o'rganilayotgan til ham yetakchilik qilishi mumkin: ona tili normalari o'rganilayotgan til me'yorlari buzilishiga olib kelishi yoxud o'rganilayotgan til qonun-qoidalari ona tili qurilishiga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Interferensiya bilingvizm hodisasi bilan bog'liq bo'lib, tilshunoslikda tabiiy va sun'iy bilingvizm farqlanadi. Sun'iy bilingvizmda fikrlash ona tilida, muloqot jarayoni esa xorijiy tilda amalga oshiriladi.

Ayrim tilshunoslar lingvistik interferensiyaning barcha til sathlariga xos ekanligi, shu sababli ham fonetik, leksik, morfologik, sintaktik interferensiya mavjud ekanligini ta'kidlaydilar. V.Alimov esa quyidagicha tasnifni taklif etadi: fonik (fonetik, fonologik va tovush talaffuzi) interferensiya, grammatik (morfologik, sintaktik va punktuatsion) interferensiya, leksik interferensiya, orfografik interferensiya, semantik interferensiya, stilistik interferensiya va intralingvistik interferensiya.

TILSHUNOSLIK

Keltirilgan tasniflardan tashqari, muloqot holatining yo'nalishiga qarab: interlingual interferensiya ijobiy, salbiy yoki ikki turli; kommunikant nutqining tipiga ko'ra impressiv (qabul qilinadigan) va ekspressiv (ishlab chiqiladigan); shuningdek intralingvistik va ekstralingvistik (tana harakatlari, nonverbal muloqot va b.) turlari ham mavjud ekanligi e'tirof etiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Fonetik interferensiya til o'rganish jarayonida xorijiy til orfoepik me'yorlarining buzilishi, chet tilga oid fonemalarning ona tilidagi ekvivalentlariga moslab talaffuz qilinishida namoyon bo'ladi. Leksik interferensiya esa ona tili leksik birliklarining chet tili leksik birliklariga ta'siriyoxud aksincha, xorijiy til leksik birliklarining ona tili leksik birliklariga ta'siri natijasida yuzaga keladi. Morfologik interferensiya ikki tilning morfologik ko'rsatkichlaridagi o'zaro ta'sir sifatida baholansa, sintaktik interferensiyada tillar sintaktik birliklaridagi o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan interferensiya nazarda tutiladi.

“Xorijiy tilni o'rganganimizda, tabiiyki, o'rganilayotgan tilning tovushlarini o'z ona tilimiz tovushlari asosida eshitamiz. Biz buni haqiqiy til egalaridan boshqacharoq tarzda qabul qilamiz. Shuning barobarida, xorijiy tilda gapirganimizda o'z ona tilimizning bizga tanish bo'lgan tovushlari va tovush qoliplaridan foydalanamiz. Tan olish kerakki, biz bu tovushlarni haqiqiy til tashuvchilaridan boshqacharoq talaffuz qilamiz. Bu fonologik interferensiya hodisasidir”. Haqiqatan ham, til o'rganishda o'z ona tili qonun-qoidalariga moslab olish xorijiy tilni o'rganish jarayonini osonlashtiradi, shu sababdan ham til o'rganuvchilar tovushlarni ham o'z ona tillariga moslab oladilar. Bu fonetik-fonologik interferensiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Interferensiyaning fonetik ko'rinishi eng keng tarqalgan bo'lib, tovushlar talaffuzi, urg'u me'yorlarining buzilishida namoyon bo'ladi. Bu hodisa ko'p hollarda aksent deb ataladi va noto'g'ri talaffuzni nomlash uchun ishlatiladi. Ingliz tilini o'rganuvchilarda so'zlarni o'zbekcha talaffuz me'yorlari bilan aytish ko'zga tashlanadi. O'zbek tilida, boshqa turkiy tillardagi kabi, odatda, so'z tarkibida bir unli, bir undosh keladi. Ikki undosh yoki ikki unli yonma-yon kelgan so'zlar fors-tojik, arab yoki rus tillaridan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Shu sababdan ham o'zbeklarda ikki undosh kelsa, ulardan birini tushirib qoldirish yoki o'rtasiga unli tovush qo'shish talaffuzni yengillashtiradi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida til o'rganuvchilar ikki yoki uch undosh birga kelsa, ularning orasiga i tovushini qo'shib talaffuz qiladilar, natijada o'zbekcha aksent yuzaga keladi: students so'zini “styudentis” tarzida, teachers so'zini “tichiris”, pupils so'zini “pyupilis” talaffuz qilish kabi.

J.Flege va R.Port arab va ingliz tillari fonetik interferensiyasi to'g'risidagi maqolada fonetik interferensiyani uch darajada tasniflaydilar: “Tillararo interferensiya bir necha darajalarda paydo bo'lishi mumkin. Birinchidan, xorijiy tildagi tovush so'zlovchining ona tilida mavjud bo'lmaydi. Shu sababdan tovush chet tilida noto'g'ri talqin qilinadi. Ammo agar bunday yangi tovush so'zlovchining ona tilida mavjud tovushlarning xususiyatlarini o'zida jamlasa, ushbu yangi tovush talaffuzida nisbatan ozroq qiyinchilik tug'iladi. Ikkinchidan, til o'rganuvchilar yangi fonemaning faqat ayrim allofonlarini noto'g'ri talaffuz qiladilar. Uchinchidan, interferensiya ma'lum xususiyatlarning fonetik talqinidagi tillararo farqlar natijasida yuzaga keladi”. [11] Keltirilgan fikrga ko'ra fonetik interferensiyaning birinchi darajasida ona tilida chet tilida mavjud, til o'rganuvchi uchun yangi fonemaning mavjud emasligi va shu sababli bu fonemaning noto'g'ri talaffuz qilinishi fonetik interferensiyani yuzaga keltiradi. Ona tilida mavjud bo'lmagan yangi o'rganilayotgan tovush birinchi tildagi biror tovushga o'xshash bo'lsa, o'rganish jarayoni yengillashtadi. Ikkinchi darajada esa fonema ayrim allofonlari noto'g'ri talqin qilinadi. Uchinchi darajali fonetik interferensiya esa tillardagi ayrim xususiyatlarning fonetik talqini bilan bog'liqdir.

Leksik interferensiya deganda tillar ta'sirida leksik birliklarning qo'llanilishi va semantik strukturasida ro'y beradigan o'zgarishlar nazarda tutiladi.

Jahon tilshunosligida fonologik va grammatik interferensiyaga keng e'tibor berilgani holda, leksik interferensiya bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar nisbatan kam. Yaratilgan tadqiqotlar esa ko'p hollarda bir-biriga mos kelmaydigan natijalarni keltirib chiqargan. Bunday natijalarning xilma-xilligi esa tillarning tabiatiga ko'ra baholangan. Shu sababdan ham tadqiqotchilar agar ikkala til (ona tili va o'rganilayotgan til) bir til oilasiga mansub bo'lsa, leksik ta'sir doirasi keng bo'ladi, chunki til o'rganuvchilar o'z ona tillaridagi leksik birliklarni o'rganilayotgan tilga shundayligicha ko'chirib o'tkazishadi, degan xulosaga kelishgan. Chunki o'rganilayotgan tilda biror so'zni bilmagan so'zlovchi muloqotni to'xtatmaslik, fikrni tugallash maqsadida o'z ona tilidagi leksik birlikdan foydalanadi.

Xullas, leksik interferensiya sifatida xorijiy tilda bilim yetarli bo'lmagan, so'z boyligi kam bo'lgan hollarda ona tili so'zlarining xorijiy til kontekstida qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Morfologik interferensiya, o'z navbatida, morfologik strukturalarning ta'sirini anglatadi. Tilshunos Al-Xreshe 2011-yilda arab tilida gapiruvchi lordaniya maktab o'qituvchilarining arab tili va ingliz tili morfologik birliklari interferensiyasi bo'yicha tajriba o'tkazgan. Ushbu tajribaga ko'ra, o'quvchilar ingliz tilida matn yaratganda ko'p hollarda inglizcha "and" bog'lovchisi o'rnida arab tiliga xos "va" bog'lovchisini qo'llaganlar. Bu – morfologik interferensiyaning bir ko'rinishidir.

Sintaktik interferensiya esa, odatda, sintaktik qurilishi turlicha bo'lgan tillar ta'sirida ko'proq ko'zga tashlanadi. Chunki ona tili bilan o'rganilayotgan til sintaktik birliklari, gap qurilishi bir xil yoki o'xshash bo'lsa, deyarli muammosiz o'zlashtiradi. Biroq tillarda farqli xususiyatlar ko'p bo'lishi sintaktik sathda ham interferensiya yuzaga keladi. Ayniqsa, gapda so'z tartibi turlicha bo'lgan tillarda bu ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek tilida ega + ikkinchi darajali bo'laklar + kesim gap tartibiga amal qilinadi. Ingliz tilida esa ega + kesim + ikkinchi darajali bo'laklar. Shunday katta farq bo'lganligi sababli ko'p hollarda ingliz tili o'rganuvchilari gap tuzishda o'zbek tili so'z tartibidan foydalanadilar, natijada ingliz tili uchun noto'g'ri gap yuzaga keladi. Men kitob o'qiyman gapining ingliz tilida I read books tarzida emas, I books read tarzida noto'g'ri aytilishi bu holatga misol bo'la oladi.

XULOSA

Demak, interferensiya tillarning o'zaro ta'sirida vujudga keladigan jarayon bo'lib, tilning barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Interferensiya til o'rganuvchilarning chet tilini o'rganish jarayonida paydo bo'ladi, til o'rganuvchining ona tili va xorijiy til o'rtasidagi ta'sir sifatida tushunilishi mumkin. Til o'rganish jarayonida so'zlovchining ona tili fonetik, leksik va grammatik qonuniyatlari uning chet tili o'rganish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. –Хужанд, 2015. (Berdaliyev A., Uzbek synchron sociolinguistics. –Hujand, 2015)
2. Улуқов Н. Тилшунослик назарияси. –Тошкент, 2016. -27-б. (Uluqov N. Theory of linguistics. –Tashkent, 2016)
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. -160-б. (Nurmonov A. Selected works. 3 volumes. 3rd volume.)
4. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. Фил.фан.номзоди...дисс автореф. –Тошкент, 2007. – 11- б. (Zokirov M. Linguistic interference and its realization in Uzbek-tajik bilingualism. Abstract of the diss.cand.philol.sciences. –Tashkent, 2007)
www.wikipedia.org/language transfer. Date of access: 18.04.2020.
5. Tomlinson, T. D., Huber, D. E.; Rieth, C. A.; Davelaar, E. J. (26 August 2009). An interference account of cue-independent forgetting in the no-think paradigm // Proceedings of the National Academy of Sciences 106 (37): 15588–15593. Date of access: 22.05.2020
6. Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. –Фарғона, 2018. -33-б. [Berdaliyev A., Zokirov M. Bases of Uzbek and Tajik linguistic connections. –Ferghana, 2018]
7. Turayeva M. Interlingual interference in language learning//<https://www.cyberleninka.ru/> Date of access: 11.05.2020.
8. Vinogradov V.A. Interferences/Linguistic Encyclopedic Dictionary. Ch.Ed. V.N.Yartsev. Бу ҳақда қаранг: S.Kushnaryova. Lexical interference in English-Finnish bilingualism//www.cyberleninka.ru/date of access: 18.05.2020.
9. Попова М. Сравнительный анализ понятийного содержания терминов “трансфер”, “трансференция” и “интерференция” в отечественной и зарубежной лингвистике//<https://www.cyberleninka.ru/>Date of access: 18.04.2020. (Popova M. Comparative analysis of the conceptual content of the terms "transfer", "transference" and "interference" in domestic and foreign linguistics// <https://www.cyberleninka.ru/>Date of access: 18.04.2020)
10. Wells J.C. Overcoming phonetic interference//Article published in English Phonetics, Journal of the English Phonetic Society of Japan, 3.9-21 (2000)// e-source//[https://www.phon.ucl.ac.uk/home/wells/interference.htm#:~:text=The%20nature%20of%20interference,and%20the%20patterns%20they%20make.&text=We%20make%20it%20sound%2C%20objectively,\(Crystal%201987%3A%20372\).](https://www.phon.ucl.ac.uk/home/wells/interference.htm#:~:text=The%20nature%20of%20interference,and%20the%20patterns%20they%20make.&text=We%20make%20it%20sound%2C%20objectively,(Crystal%201987%3A%20372).) Date of access: 2.06.2020
11. James Emil Flege and Robert Port. Cross-Language Phonetic Interference: Arabic To English//http://jimflege.com/files/Flege_Port_phonetic_interference_L_S_1981.pdf Date of access: 12.04.2020